
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan viloyat faollarining tantanali yig'ilishini olib borish
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan viloyat faollarining tantanali yig'ilishini olib borish

T A R T I B I

Assalomu alaykum!

Hurmatli tadbir ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
24 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirga hush kelibsiz!**

Bosh qomusimiz — oliy yuridik kuchga ega huquqiy hujjatdir. U davlatimiz mustaqilligining ulkan ramzi bo'lib, har bir satrida istiqbol va taraqqiyot yo'limiz aks etadi. Uni erkinlik, mustaqillik, ozodlik va hurlik tantanasi sifatida e'zoz-hurmat bilan tilga olishimiz zarur. O'zbek xalqi ana shunday ulug'vor Konstitutsiyaga munosib, o'tmishi va kelajagi buyuk xalqdir.

Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganligiga 24 yil to'ldi. Ayni kunda xalqimiz ana shu muhim sanani bayram sifatida keng nishonlamoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalq xohish-irodasiniifoda etuvchi adolatli davlat, farovon jamiyat va erkin hayot qurish va uni rivojlantirishning istiqbollarini belgilaydi. Unda inson hayoti, uning sha'ni, qadr-qimmatini, haq-huquqlari va manfaatlari oliy qadriyat sifatida mustahkamlab qo'yilgan.

Biz qonun ustuvor bo'lgan jamiyat barpo qilmoqchimiz. Qonun ustuvorligi — bu qonunga rioya etish hamma uchun majburiy bo'lgan, uni buzishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan huquqiy hayotiy tartibdir. Shuning uchun shu hayotiy tartibga o'zimizni tayyorlab va etarli huquqiy bilimlarga ega bo'lib borishimiz lozim.

Bosh qomusimiz qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab, tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki unda mustahkamlangan qoidalar va ifodalangan g'oyalar zamirida xalqning, sizni bizning huquq va erkinliklarimiz mujassam. Uni aziz va muqaddas deb bilib, Konstitutsiyadagi qoidalar asosida yashashimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatimiz barcha a'zolarining, shu jumladan, yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini o'zida to'la ifoda etadi. Chunki davlatimizning har tomonlama qudratli davlatga aylanishida yoshlarning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning qobiliyati, iste'dodi, bilimiga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlarini e'tiborga olib, ilm olish, kasb, mashg'ulot turi va ish tanlash huquqini o'z ichiga oluvchi huquqlar majmui Konstitutsiyaviy qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan.

Hurmatli tadbirqatnashchilari!

Bugungi bayram tantanasida O'zbekiston Respublikasi Oliy MajlisiSenati a'zolari, viloyat, shahar va tuman Kengashlari deputatlari, viloyat hokimining o'rinbosarlari, shahar, tuman hokimlari, ularning o'rinbosarlari, xotin-qizlar qo'mitasi raislari, viloyatimizdagihuquq-tartibot organlari rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari, harbiylar, ommaviy axborot vositalari xodimlarimiz hamda davlat mukofoti bilan taqdirlanganfidoyi yurtdoshlarimizqatnashmoqdalar.

Shuningdek, bugungi tantanada O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari **Adxam Ilxamovich Ikramov** ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan viloyat faollarining tantanali yig'ilishini ochiq deb e'lon qilaman.

Ma'ruza qilish uchun so'z viloyat prokurori, adliya maslahatchisi Abduraxmonov Muzaffar Mamurovichga.

Marhamat. *(ma'ruza 10-15 daqiqa)*

Muhtaramtadbir ishtirokchilari!

Xabaringiz bor, Respublikamiz mustaqilligining 25yilligi bayrami arafasida viloyatimizning bir guruhfaollari davlatimizning orden va medallari hamda yuksak unvonlari bilan mukofotlangani.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining orden, medal va yuksak unvonlar bilan taqdirlash haqidagi Farmonini o'qib berish uchun so'zni viloyat hokimligi tashkiliy-nazorat guruhi rahbari **AbdumalikovAbduvahob Abidovichga** beraman.

Ruxsatlaringiz bilan ushbu davlat mukofotlarini O'zbekiston Respublikasi Boshvazirining o'rinbosari **Adxam Ilxamovich Ikramov**topshirishlarini iltimosqilamiz.

Marhamat.

Mukofotlanganlardan so'zga chiquvchilar bor-mi?

(ruyxat bo'yicha o'qib beriladi)

Hurmatli yurtdoshlar !

Sizlarga yana bir bor Davlatimizning yuksak mukofotlari muborak bo'lsin, viloyatimiz fidoyilari.

Mukofotlanganlarni tabriklash uchun so'z O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari **Adxam Ilxamovich Ikramovga**.

Marhamat.

Rahmat.

Shuning bilan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishimizning rasmiy qismini yopiq deb e'lon qilib, Sizlarni bayram tadbiriga bag'ishlab tayyorlangan kontsert dasturini tomosha qilishga taklif etamiz.

Marhamat.

2017-06-12 11:56:36